6, 2010
IYUN

# Boshlang'ich
# T



# FANLARARO EKOLOGIK TARBIYA

*Endilikda tabiatga insoniyatning ko'r-ko'rona munosabati tufayli yashil olam, havo, tuproq va hatto hayvonot dunyosi ham birdek aziyat chekmoqda. Ustiga-ustak sanoat va texnikaning jadal rivojlanishi ham ekologiyamizning izdan chiqishiga sabab bo'layotir. Shuning uchun ham bugunga kelib atrof-muhit muhofazasi insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu vazifaning avvalida yosh avlodga maktab partasidayoq ekologik ta'lim-tarbiya berishga jiddiy yondoshuv talabi yotadi.*

Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya asosan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shakllantiriladi. Lekin biz namuna sifatida darslarda ekologik tarbiyaning fanlararo shakllantirish jarayoni bilan tanishib chiqamiz. Eng avvalo, boshlang'ich ta'limning barcha fanlaridagi ekologik mazmun kasb etgan mavzularni tahlil qilib olamiz. Shu bilan birga mavzularning fanlararo bog'liqlik jihatlarini o'rganish natijasida didaktik talablar asosidagi ekologik tarbiyani ham olib boramiz. O'zaro bog'liqlik fan turkumlari asosida quyidagicha o'rganiladi:

- tabiiy fanlar yo'nalishi asosida;
- ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida;
- aniq fanlar va
- fan turkumlari asosida.

Yuqorida qayd etilgan fanlararo bog'liqlik asosidagi ekologik mazmundagi mavzular (keyingi jadvaldagi mavzular asosida) umumiy bir mavzuga quyidagi jadval asosida birlashtiriladi:

| T/r | Dars jarayonida o'tiladigan ekologik mazmundagi mavzular | Fanlararo bog'liqlik | Sinf |
|---|---|---|---|
| 2. | Qushlar – bizning do'stimiz | Atrofimizdagi olam + O'qish | 1-sinf |
| 3. | Hayvonlarni asrash bizning burchimiz | Atrofimizdagi olam + Matematika | 1-sinf |
| 4. | Suv – hayot manbai | Odobnoma + Ona tili | 1-sinf |
| 5. | Yashil dorixona | Odobnoma + O'qish | 1-sinf |
| 6. | Inson va tabiat | Atrofimizdagi olam + O'qish | 1-sinf |
| 7. | Qushlarni himoya qilamiz | Odobnoma + O'qish | 2-sinf |
| 8. | Hayvonlar — bizning do'stimiz | Matematika + Odobnoma | 2-sinf |
| 9. | Suv | Atrofimizdagi olam + Odobnoma | 2-sinf |
| 10. | Yashil o'simlik | O'qish + Ona tili | 2-sinf |
| 11. | Toza havo | Atrofimizdagi olam + O'qish | 2-sinf |
| 12. | Inson va tabiat | Atrofimizdagi olam + O'qish | 2-sinf |
| 13. | Qushlar | Odobnoma + O'qish | 3-sinf |
| 14. | Hayvonlar | O'qish + Matematika | 3-sinf |
| 15. | Suv – hayot demakdir | Atrofimizdagi olam + O'qish | 3-sinf |
| 16. | O'simlik dunyosi | O'qish + Ona tili | 3-sinf |
| 17. | Inson tabiat bo'lagi | Tabiatshunoslik + O'qish | 3-sinf |
| 18. | Qushlar | O'qish + Ona tili | 4-sinf |
| 19. | Hayvonot dunyosi | Matematika + Ona tili | 4-sinf |
| 20. | Suv – hayotdir | Tabiatshunoslik + Ona tili | 4-sinf |
| 21. | O'simlik olami | O'qish + Ona tili | 4-sinf |
| 22. | Inson va tabiat munosabati | Tabiatshunoslik + Odobnoma | 4-sinf |
| 23. | Ekologik mazmunda sinfdan tashqari o'qish | O'qish + Odobnoma | 1-4-sinflar |
| 24. | Ekologik mazmundagi har xil janrdagi asarlarni o'qish | O'qish + Odobnoma | 1-4-sinflar |
| 25. | Umumlashtiruvchi dars | Fanlararo bog'liqlik | 1-4-sinflar |

| 1-sinf fanlari | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Atrofimizdagi olam | O'qish | Odobnoma | Ona tili | Matematika |
| Qushlar | Rivoyat | Umidvor qushcha | Ekologik mazmunda diktant, bayon, insho va yozma mashqlar bajarish | Ekologik mazmunda masalalar yechish |
| Qushlar – bizning do'stimiz | Alisherning yoshligi | Orzular | | |
| Chumchuq bilan chittak | Mirzo Ulug'bek | Zag'izg'on | | |
| | Buyuk munajjim | Qushim boshi | | |
| | Ona sabog'i | | | |
| | Navro'z bayrami | | | |
| Hasharotlar | Toshbaqa va quyon | Hayvonlar nima deydi? | | |
| Uy hayvonlari va parrandalari | Sher va sichqon | | | |
| Yovvoyi hayvonlar | Maymun va duradgor | | | |
| Jonli burchak | Kapalak | | | |
| | Aqlli bog'bon | | | |
| Biz va tabiat | Yer nima der? | | | |
| | Maqtanchoq g'oz | | | |
| Yashil dorixona | Ona yer | Maktab gulzorida | | |
| | Chinor va maysalar | | | |
| | Sayyod va durroj | | | |
| | Yer she'ri | Suv — hayot manbai | | |

Navbatdagi jadvalda barcha fanlarning ekologik mazmundagi mavzulari tahlili keltirilgan. Bunda bir necha mazmunan bir-biriga bog'liq mavzular asosida bitta umumiy mazmundagi mavzu hosil qilinadi. Ularda ham uyg'un maqsadlar bolalarning ongli ravishda atrof-muhit muhofazasi barchaning burchi ekanligini his eta turib faoliyat yuritishga yo'naltiriladi.

**2-sinf fanlari**

| Atrofimizdagi olam | O'qish | Odobnoma | Ona tili | Matematika |
|---|---|---|---|---|
| Yil fasllari<br>Suv — hayot manbai | Topishmoqlar va tez aytishlarni ekologik tahlil qilish | Ariq va suv | Ekologik mazmunda diktant, bayon, insho yozish va mashqlar bajarish | Ekologik mazmunda masalalar yechish |
| Tabiatdagi jism va moddalar | Tabiat | | | |
| Ob-havo | Ob-havo darakchilari | | | |
| | Ibn Sino bobo — ulashar davo | | | |
| | Kuychi terak | | | |
| | Qushlar — bizning do'stimiz | | | |
| | Tog'dagi voqea | Mehr | | |
| | Kuchukcha bilan uloqcha | | | |
| | Hissang qo'sh | Hashar — xayrli va savobli ishdir | | |
| Bahorda o'simliklar hayoti | Nilufar | | | |
| O'simliklarning qishga tayyorlanishi | Daraxtlar suhbati | | | |
| | Ko'klam yomg'iri<br>Tomchi haqida ertak<br>Kuyni sevgan gullar<br>Jayron bolasi | Ko'prik | | |
| Uy va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti | | | | |
| Bahorda hasharotlar hayoti | Shamol botir<br>Gullar suhbati<br>Gullarni seving, gullardek go'zal bo'ling<br>Marvaridgul | | | |
| O'lkamizda uchraydigan qushlar | Xaloskor | | | |
| Bahorda o'lkamizga qushlarning qaytib kelishi | Qo'riqchi<br>Ko'ngilchan o'tinchi<br>Ur, to'qmoq! | | | |
| O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar | O'ktam | | | |
| Inson va tabiat | Yashil olam – yaxshi olam | | | |
| Hasharotlar hayoti | Tabiatning jonli bezagi | | | |

**3-sinf fanlari**

| Tabiatshunoslik | O'qish | Odobnoma | Ona tili | Matematika |
|---|---|---|---|---|
| Tabiat nima? | Dadam qurgan dengiz<br>Tabiat bilan suhbat | Soy suvi haqida ertak<br>Tabiatni asrash – burchimiz | Ekologik mazmunda diktant, bayon, insho yozish va mashqlar bajarish | Ekologik mazmunda masalalar yechish |
| | Quyoncha | | | |
| | Daraxtlarni oqlaganda | | | |
| Tabiatda, havo va suv | Ona tabiat | | | |
| Tuproq | Yer sevarni — el sevar | | | |
| Tabiat va inson— bir butun | Suhbat | | | |
| | Do'stlar | Chumchuq bola | | |
| | Gulzorda | Bobur bobomiz yaratgan bog'lar | | |

**4-sinf fanlari**

| Tabiatshunoslik | O'qish | Odobnoma | Ona tili | Matematika |
|---|---|---|---|---|
| | Ochko'z boy | | Ekologik mazmunda diktant, bayon, insho yozish va mashqlar bajarish | Ekologik mazmunda masalalar yechish |
| Cho'lning inson tomonidan o'zlashtirilishi | Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak | | | |
| | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | Konstitutsiya — asosiy qonunimiz | | |
| Qizil kitob – ogohlik belgisi | Qush tili | | | |
| | Mo''jiza | | | |
| | Xatarli uchrashuv | | | |
| | Tushovli toy | | | |
| | Ayiqni yenggan cho'pon | | | |
| | Ko'kyo'l | | | |
| Tabiatga g'amxo'r bo'ling | Nihollarning nolasi | Mo''tabar qadimiy qo'lyozma | | |
| Suv havzalarini muhofaza qilish | Suv bilan suhbat | | | |
| Foydali qazilmalarni muhofaza qilish | | | | |

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish ularni tabiatga oqilona munosabatda bo'lishlariga, yashil olam boyliklarini sevishga, ardoqlashga undash barobarida ular qalbida ekologik madaniyatni shakllantirishga ham asos bo'la oladi.

**Nilufar ISAQULOVA,**
**O'MKHTTKMO**
**va UQTI**
**doktoranti.**